

## ELEKTR ENERGIYASI SOXASIDA METROLOGIYANING O'RNI.

Badalov Nomoz Jo'raboevich

Jizzax politexnika instituti dotsenti v.b.

telefon: +998903110662 [nomozbadalov@gmail.com](mailto:nomozbadalov@gmail.com)

Suyarqulova Gulhayo Jo'raql qizi.

Jizzax politexnika instituti magestri.

+998990230092 [suyarqulovagulhayo7@gmail.com](mailto:suyarqulovagulhayo7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Metrologiyaning asosini o'lhashning umumiy masalalari, fizik kattaliklar birligi va ularning sistemalari haqidagi ma'lumotlar, o'lhashning usul va vositalari, o'lhash natijasining to'g'riligini aniqlash usullaridan iborat. Texnika taraqqiyotining rivojlanishi, maxsulot sifatining oshishi, uning mustaxkamligi va chidamligi fizik xodisalar, modellarning xususiyati, texnologik jarayon tavsifi xaqida to'la ishonchli ma'lumotlar olish usuli xamda vositalari yigindisi bo'lgan o'lchov texnikasi bilan boglikdir.

**Kalit so'zlar:** metrologiya, o'lhash vositasi, sinov uskunasi, etalon, texnologiya, kalibrlash, qiyoslash, texnologik jarayon, fizik kattaliklar.

Metrologiya - o'lhashlar, uni ta'minlash usullari va vositalari xamda talab etilgan aniklikka erishish yo'llari xaqidagi fan. Metrologiyaning asosini o'lhashning umumiy masalalari, fizik kattaliklar birligi va ularning sistemalari xakidagi ma'lumotlar, ulchashning usul va vositalari, ulchash natijasining tugriligini aniklash usullari va xokazolar hosil kiladi. O'lhashga doir fizik kattaliklar mexanik, elektr, issiklik, optik, akustik bulishi mumkin [1]. Bu kattaliklarning bir turi texnologik jarayon rivojlanishining bevosita kursatkichi bo'lsa, boshqalari shu jarayon bilan funksional bog'langan bo'ladi. Fizik xodisalarni o'rganish va ulardan amalda foydalanish turli fizik kattaliklarni o'lhash, ya'ni ma'lumot olish bilan bog'lik. Ma'lumot kancha to'la va xodisona bo'lsa, fizik xodisalarning tub ma'nosini tushunish shunchalik chuqur bo'ladi. Fizik kattalikning muayyan kiymati texnologik jarayonning rivojlanishi xakidagi ma'lumotning muxim qismidir [2]. Turli usul va asboblar orqali ifodalangan texnologik jarayonning xolati xaqidagi axborotlarni ma'lumot, ya'ni informatsiya deb bilamiz. Informatsiyalar, asosan, o'lhash asboblari va qurilmalari yordamida olinadi. Fizik ob'ekning sifat jixatdan umumiy, lekin miqdor jixatdan xar bir ob'ekt uchun alohida xususiyati fizik kattalik deb ataladi. SHunday qilib, xar bir fizik kattalik aynan shu kattalikning sonli kiymati birligiga ko'paytmasidan iborat bo'lgan individual qiymati bilan ifodalanadi. Bir-biriga muayyan erksizlik bilan boglangan kattaliklar yigindisi fizik kattatliklar sistemasi deyiladi [3]. Fizik kattaliklar sistemasi asosiy, qo'shimcha va xosila kattaliklardan iborat. Sistemaga kirgan va boshka sistemalarga nisbatan shartli ravishda erkin xisoblangan fizik kattalik asosiy kattalik deb ataladi. Xozirgi qo'llanilayotgan ayrim o'lchov sistemalariga nisbatan muxim afzalligi shundaki, universal, o'lchov birliklarini amaliyot uchun kulay o'lchamlarga mujassamlashtirgan, kogerent, ya'ni xosilaviy birliklar o'lchamlarini aniklovchi fizik tenglamalardagi mutanosiblik koeffitsientlarini tugatgan sistemadir [4]. Uning tarbiki bilan xisoblash formulalarining yozilishi ancha soddalashdi. Birliklarning o'nlik karrali va ulushli qiymatlari barcha birliklardan emas, balki amaliy xisoblarda kulaylik yaratadigan birliklardangina xosil qilinadi. SHunday soxalar xam borki, ularda doimo karrali yoki ulushli birliklargina ishlataladi [5].

Texnika taraqqiyotining rivojlanishi, maxsulot sifatining oshishi, uning mustaxkamligi va chidamligi fizik xodisalar, modellarning xususiyati, texnologik jarayon tavsifi xakida tula ishonchli ma'lumotlar olish usuli xamda vositalari yigindisi bulgan ulchov texnikasi bilan boglikdir. O'lhashlar, o'lhash turlari, o'lhash-fizik kattaliklar kiymatlarini tajribada maxsus texnik vositalar yordamida aniklash [6]. Ko'p xollarda ulchash jarayonida o'lchanayotgan kattalikni shunday fizik kattalik bilan taqqoslanadiki, unga 1 ga teng bo'lgan qiymat beriladi va u fizik kattalik birligi yoki ulchov birligi deyiladi. O'lhash natijasi-kattalikning ulchash usuli bilan, masalan kattalikni ulchov birligi bilan takkoslash usuli yordamida topilgan kiymatidan iborat.



Lobachevsky  
University



Новосибирский  
государственный  
технический  
университет  
**НЭТИ**



Bevosita o'lhash deb shunday o'lhashga aytildiki, unda o'lchanayotgan kattalikning izlanayotgan kiymati tajriba ma'lumotlaridan bevosita aniklanadi [7]. Bilvosita o'lhash deb shunday o'lhashga aytildiki, unda o'lhash natijasi o'lchanayotgan kattalik bilan ma'lum munosabat yordamida bog'langan kattaliklarni bevosita o'lhashga asoslangan bo'ladi [8].

Bevosita o'lhashga o'tkazgichning solishtirma elektr karshiligi uning karshiligi, uzunligi va ko'ndalang kesimini yuzi buyicha topish; jism zichligini uning massasi va xajmini ulhash natijasi buyicha topish va boshkalar misol bula oladi. Bilvosita o'lhashlar bevosita ulhashlarning iloji bo'lmanan ishlab chikarish jarayonlarini nazorat qilishda keng qo'llanadi. Birlashtirib o'lhash bir nomli kattaliklarni bir vaktda o'lhashdan iboratki, unda izlangan kattaliklarning qiymatlari bevosita o'lhashda xosil qilingan tenglamalar sistemasidan topiladi. Bir vaktda ikki yoki bir necha nomli turli kattaliklarni, ularning orasidagi funksional munosabatlarni topish uchun olib borilgan ulhashlar birqalikda ulhash deyiladi. Jumladan ulhash rezistorining  $20^0$  S dagi elektr karshiligi va temperatura koefitsientlari uning ma'lumotlari buyicha topiladi. Bevosita baxolash usuli o'lchanayotgan kattalik miqdrini bevosita o'lhash asbobining xisoblash kurilmasi buyicha bevosita topish imkonini beradi [9]. Masalan, bosimni prujinali manometr bilan, massani siferbatli tarozida, tok kuchini ampermetr bilan ulhash va xokazo. Bu usulda ulhash anikligini uncha katta bulmasa xam, ulhash jarayonining tezligi uni amalda kullanishda tengi yuk usulga aylantiradi. Differensial usul ulchanayotgan va ma'lum kattaliklarning ayirmasini ulhashni xarakterlaydi. Masalan, gaz aralashmasi tarkibini xavoning issik o'tkazuvchanlik bo'yicha o'lhash. Nol (kompensatsion) usul ulchanayotgan kattalikni kiymati ma'lum bulgan kattalik bilan takkoslashdan iborat, ammo ular orasidagi ayirma ma'lum kattalikni uzgartirish usuli bilan nolga keltiriladi. Potensiometrlar, muvozanatlashtirilgan kupriklar va boshkalar nol usulga asoslangan asboblarga misol bula oladi. Nol usul ulhashning yukori anikligini ta'minlaydi [10].

O'lhash o'zgartirishi bitta fizik kattalikning ulchamini boshka fizik kattalikning ulchamga uzgartirishdan iboratdir. O'lhash o'zgartkichi-o'lhashlar vositasi sifatida o'lhash o'zgartirishini amalga oshirishga imkon beradi. Kattalikning ketma-ket o'zgartirishlar qatoridan bittasi yuz beradigan ulhash vositalari elementi o'zgartirish elementi deb ataladi. O'zgartirish elementi xar doim xam konstruktiv ajralib turmaydi, ya'ni ulhash vositasi konstruksiyasining ayni bitta elementi ikki va undan ortik uzgartirish elementiga ega bulishi mumkin. O'lhash axboroti signali xamma uzgarishlarning amalga oshishini ta'minlovchi uzgartirish elementlari tuplami ulhash vositasining o'lhash maksadi deyiladi [11]. O'lhash zanjirida bevosita o'lchanayotgan kattalikning ta'sirida bo'lgan birinchi o'zgartirish elementining qismi sezgir element deyiladi. Konstruksiyada sezgir elementning ulhash vositasini aniklashda e'tiborli bulish va uni ximoya armaturasi bilan chalkashtirmslik kerak, chunki bu armatura o'lchanayotgan kattalikka bevosita tegib turadi. Birlamchi o'lhash o'zgartkichi-o'lhash o'zgartkichi bo'lib, unga o'lchanayotgan fizik kattalik keltirilgan, ya'ni o'lchov zanjirida birinchi, masalan, deformatsion manometrning trubasimon prujinasи. Birlamchi o'lhash o'zgartkichi yordamida o'lchanadigan kattalik yoki o'zgartiriladigan fizik kattalik boshka uzgartkichga yoki asbobiga uzatilishi mumkin. Oralik o'lhash o'zgartkichi-o'lhash zanjirida birlamchidan keyingi o'rinni egallangan o'lhash o'zgartkichidir [12]. Uzatuvchi o'lhash o'zgartkichi – o'lhash axboroti signallarini masofadan turib uzatish uchun muljallangan o'zgartkichdir. Masshtabi o'lhash o'zgartkichi-kattalikni berilgan marta o'lhash uchun mo'ljallangan o'zgartkich. CHiqish signallari bir xillashtirilgan ulhash o'zgarkichlari chikishda ulchanayotgan fizik kattalikning turiga boglik bulmagan xolda maxsus kurilmalar yordamida shakllanadigan signallarga ega [13].

CHiqish signallari tabiiy bulgan o'lchov o'zgartkichlari shunday qurilmalarki, ularda chiqishdagi signallar tabiiy yul bilan shakllanadi, ya'ni o'lchanayotgan kattalikni birlmachi almashtirish uchun eng oddiy va samarali yul bilan shakllanadi. Diskret chikish signali o'lhash o'zgartkichlari chikishda o'lchanayotgan kattalik ma'lum kiymatga erishganda o'z xolatini o'lchovchi kontak guruxga ega. Ular asosan texnologik signalizatsiya uchun qo'llanadi. Generatorli o'zgartkichlar-shunday o'zgartkichki, ularda axborot oqimini shakllantirish uchun qo'shimcha manbadan energiya olib kelish talab kilinmaydi. Masalan, termojuft temperaturani aylantirib, energiyani fakat ulhash ob'ektidangina oladi. SHunday kilib, generatorli



**LOBACHEVSKY  
UNIVERSITY**

**N** Новосибирский  
государственный  
технический университет  
**НЭТИ**

Новосибирский  
государственный  
технический университет  
**НЭТИ**

**МФТИ**

o‘zgartirgichlarda energiya va axborot okimlarining yunalishlari bir xil bo‘ladi [14]. Parametrik o‘zgartkichlar-shunday o‘zgartkichlarki, ularda energiya va axborot oqimlarining yo‘nalishlari bir xil bo‘lmaydi. Jumladan, agar ob‘ektda karshiliqi temperaturaga boglik bulgan termorezistor o‘rnatilgan bo‘lsa, u xolda axborot olish uchun asbobdan yoki o‘zgartkichdan termorezistorga tok o‘tkazish zarur. Tokning o‘zgarishi o‘lchanayotgan temperaturaning o‘zgarishi xakidagi axborot bo‘ladi. Axborot signaling intensivligi manba signalni intensivligiga bog‘lik bo‘lib, bu parametrik o‘zgartichlarning o‘ziga xos xususiyatidir. O‘lchov-berilgan o‘lchamdagи fizik kattalikni qayta o‘lhash uchun muljallangan o‘lhash vositasi. Masalan, katod tok-massa o‘lchovi, o‘lchov rezistori-elektr karshilik o‘lchovi, yoritish lampasi-yorug‘lik o‘lchovi va xokazo. Standart namuna-modda va materiallarning xossalarni yoki tarkibini xarakterlovchi kattaliklarning birligiga kayta tiklash uchun o‘lchov. Masalan, tarkibidagi kimyoviy elementlari ko‘rsatilgan ferromagnit materiallar xossalarning standart namunasi. Namuna modda-tasdiklangan spetsifikatsiyada kursatilgan, tayyorlash shartlariga rioya kilinganda tiklanadigan ma’lum xossalarga ega bo‘lgan moddadan iborat o‘lchov. Masalan, «toza» gazlar, «toza» metallar, «toza» suv [15].

O‘lhashga doir axborotni uzatish, ishlov berish va saqlash uchun qulay bo‘lgan, ammo kuzatuvchi bevosita idrok kilishi mumkin bo‘lmaydigan shakldagi signalni ishlab chiquvchi o‘lhash vositasi ulhash o‘zgartichi deb ataladi. Inson uzining sezgi organlari bilan o‘lhash o‘zgartichi signallarini qabul qila olmaydi. O‘zgartiriladigan fizik kattalik-kirish kattaligi, uning o‘zgartirilgani esa chiqish kattaligi deyiladi. Kirish va chiqish kattaliklari orasidagi bog‘lanishni o‘zgartkich funksiyasi qaror toptiradi. O‘lhash o‘zgartichlari ulchov asboblarining, turli o‘lchov sistemalarining, biror jarayonlarni avtomatik nazorat kilish yoki boshkarish sistemalarining tarkibiy kismi xisoblanadi. O‘lchanayotgan kattalik keltirilgan o‘lhash o‘zgartichi birlamchi o‘zgartkich deyiladi [16]. Ish ulchov vositalari xalk xujaligining barcha tarmoklarida amaliy o‘lhashlar uchun muljallangan. Ular anikligi orttirilgan o‘lchov vositalari va texnik o‘lchov vositalariga bo‘linadi. Namuna ulchov vositalari ish ulchov asboblarini tekshirish va ularni uzlari buyicha darajalashga xizmat kiladi. Etalonlar fizik kattalik birliklarini qayta tiklash va saqlash, ularning o‘lchamlarini namuna o‘lchov asboblari orkali xalk xujaligida qo‘llanadigan ish o‘lchov vositalariga o‘tkazishga xizmat qiladi [17]. Fizik kattaliklarning birliklari o‘lchami shu usul bilan etalonlardan namuna o‘lchov asboblari yordamida boshqa o‘lchov asboblariga o‘tkaziladi [18]. O‘lhash vositalarining ko‘rsatishlariga tuzatish kiritish maksadida o‘lchov vositalari ko‘rsatishlarini namuna o‘lchov asboblarining ko‘rsatishlariga taqqoslash asbobni tekshirish deb ataladi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O‘g B. O. N. et al. The role of quality management system in increasing product quality in enterprises //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 228-233.
2. Бадалов Н. Ж., Бердимуродов Г. Т., Бадалов У. Н. СИФАТЛИ МАҲСУЛОТ ИШЛАБ ЧИҚАРИЛИШИДА СИНОВ ВА ЎЛЧОВЛАРНИНГ АХАМИЯТИ //ИТМОИY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 101-106.
3. Бадалов Н. Ж., Бадалов У. Н. КОРХОНАЛАРДА МАҲСУЛОТЛАР СИФАТИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ //Academic research in modern science. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 38-45.
4. Juraboyevich B. N. et al. Development Of Metrology And The Role And Importance Of Metrological Supply In Enterprises //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 4. – С. 136-139.
5. Juraboyevich B. N., Son B. O. N. THE ROLE OF QUALITY PRODUCTION IN ENTERPRISES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 10. – С. 644-647.



LOBACHEVSKY  
UNIVERSITY



6. Jo'rboevich B. N., Ikramovich I. D., Nomozovich B. U. SINOV VA KALIBRLASH LABORATORIYALARIDA KOMPETENTLIGINI XALQARO DARAJADA OSHIRISH OMILLARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 128-131.
7. Бадалов Н. Ж., Икрамов Д. И., Бадалов У. Н. КОРХОНАЛАРДА ЎЛЧАШЛАР, СИНОВЛАР ВА ТАҲЛИЛЛАРНИНГ МЕТРОЛОГИК АХАМИЯТИ //Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 15. – С. 11-17.
8. Jo'rboevich B. N., Ikramovich I. D., Nomozovich B. U. SIFAT MENEJMENT TIZIMINING-SINOV VA KALIBRLASH LABORATORIYALARIDAGI O 'RNI //E Conference Zone. – 2022. – С. 67-71.
9. BADALOV U. N. O. QUALITY IN PRODUCT QUALITY MANAGEMENT SIGNIFICANCE OF INDICATORS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 65-75.
10. BADALOV U. N. O. THE IMPORTANCE OF TESTING LABORATORIES AND THEIR ACCREDITATION //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 163-169.
11. Juraboevich B. N. Products in Manufacturing Enterprises the Essence of Quality Management //International Journal of Development and Public Policy. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 117-118.



LOBACHEVSKY  
UNIVERSITY

